

MAHMUD SHABUSTARIYNING ADABIY MEROSSI

Mulloqulova Shohista

ToshDO'TAU 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada islom olamida “Gulshani roz” asari bilan tanilgan Shayx Mahmud Shabustariy ijodiga xos bo‘lgan irfoniy-tasavvufiy asarlar tanishtiriladi. Har bir asarning ma’no hamda mazmuniy tomonlari xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Shabustariy, tasavvuf, tafakkur, tawhid, risolalar.

Qadimgi Sharq insoniyat sivilizatsiyasi, ilm-fan va madaniyat beshigi ham uning eng qimmatli manbasidir. O‘rta asrlar islom olami o‘zining boy ilmiy-falsafiy, diniy-g‘oyaviy, axloqiy-ma’naviy va adabiy-estetik merosi, yozma yodgorlik namunalari bilan ajralib turadi. Tasavvuf va irfon bobida katta shuhrat qozongan mutafakkir va alloma Shayx Sadiddin Mahmud Aminiddin Abdulkarim ibn Yahyo Shabustariy ham ayni shu davrning yetuk vakili edi.

Shabustariy XIII asrnинг 2-yarmida hozirgi Eron va Ozarbayjon oralig‘idagi Urmiya ko‘li yaqinidagi Tabriz viloyatining Shabistar degan kichik qishlog‘ida tug‘ilgan. Shoirning tavallud va vafoti bo‘yicha tarixchi hamda tadqiqotchilar o‘rtasida bir qator ixtiloflar mavjud. Shu sabab ham uning yashagan yillari manbalarda turlicha keltirilgan. Jumladan, Rizoqulixon Hidoyat “Majma al-fusaxa” kitobida shunday yozadi: “Shabustariy o‘z davrining Oljeytu(1304-1315) boshqaruvida mashhur olim va ma’naviyat peshvosi edi”. Latalibek Ozar “Otashkadai Ozar”da bu haqda shunday deydi: “ U Gayxatu (1291-1295) davrida tug‘ilgan”[3:15]. Samad Muvhahidning yozishicha, Shabustariy 1320/21-yillarda vafot etgan, 33 yil umr ko‘rgan [1:204]. Biroq bir qator tadqiqotchilar shoir uzoq umr ko‘rganini va bu haqda o‘zining “Saodatnoma” asarida ham aytib o‘tganini bildirishadi.

Ilm va dinni o‘rganing, sunnat yo‘lini tuting,

Bu dunyoda ko‘p yashagan mendan ko‘rsatma ol! [3:15]

Yuqoridagi fikrlar asosida Shayx Mahmud Shabustariy 1288–1340-yillarda yashagan deb aytish o‘rinli.

Tarix zarvaraqlariga nomi bitilgan insonlarning shon-shuhrati ularning ilmiy-madaniy faoliyati, jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishga qo‘shtgan hissasi bilan chambarchas bog‘liq. Shabustariy nazmda tasavvufiy va falsafiy masalalarga bag‘ishlangan ikki buyuk asar yaratdi. Rumiy “Masnaviy”si, Xayyom “Ruboilari”,

Sa'diy "Guliston" va "Bo'ston" bilan mashhur bo'lgani kabi Shabustariy ham "Gulshani roz" masnaviysi orqali tasavvuf olamida shuhrat topdi.

Shabustariyning 1006 baytdan iborat "Gulshani roz" masnaviysi asli hirotlik mashhur alloma Amir Husayn Haraviyning savollariga javob tariqasida yaratilgan. Asar 1317-yilda yozilgan bo'lib, buni muallifning o'zi ham qayd etgan. Amir Husaynning 15 savoliga javob tariqasida yozilgan bu asarda irfon va tasavvufning nazariy asoslari, vahdat hamda botiniy idrok ta'limoti atamalari va ramzlarning mazmuni ochiqlangan.

"Saodatnama" Shabustariyning nazmdagi ikkinchi asari bo'lib, Sanoyi G'aznaviyning "Hadiyat ul-haqiqat" ("Haqiqat bog'i") nomli didaktik asari namunasida yaratilgan. 1985-yilda S.Muvohhid muharrirligida nashr etilgan bobdan iborat masnaviyning hajmi 1571 baytga yetadi. An'anaviy hamd qismidan so'ng muqaddima qismida asarning yozilish sababini va undagi boblar tartibini tushuntiradi. Asarning 1-bobi "vojib al-vujud", ya'ni Haq taoloning mohiyatini idrok etish, uning mavjud va muqarrar ekanligini anglashga qaratilgan. Keyingi boblarda Yaratuvchining sifatlari, iymonning darajalariga asoslanib, "Ilm al-yaqin", "ayn al-yaqin" va "Haqqul-yakin" nomlari izohlanadi [2:11-12].

"Saodatnama" diniy masalalarga bag'ishlangan asar. Undagi har bir fikr oyat va suralar bilan dalillangan. Qur'on va Muhammad payg'ambarning hadislaridan iborat bo'lgan bu she'riy asarning har bir bobidan hikoyalar, masallar o'rinni olgan. Shabustariy 8 bobdan iborat she'riy asar yozishga bel bog'lagan, ammo 4 bobdan so'ng fikrlarini muxtasar qilib hozirgi shaklda qoldirgan. Yana bir muhim jihat shundaki, tadqiqotchilar orasida Shabustariy bu asarini Imom Muhammad G'azzoliyning mashhur "Kimyoi saodat" asaridan ilhomlanib yaratgan va shu ta'sir tufayli "Saodatnama" deb nomlagan degan qarashlar mavjud.

Shabustariyning ilk nasriy asari "Haqq ul-yakin fi mag'rifat-i Rabb al-olamin", ikkinchisi "Mir'ot al-muhakkikin" risolalaridir. Bu risolalar ham tasavvufiy asar bo'lib, muallifning tafakkuri va bevosita ruhiy tajribasi asosida yozilgan. Mazkur risolalaning bugungi kunda nashr ettirgan muharriri Rizo Ashrafzoda uning muqaddimasida shunday deydi: "Ushbu asar, shubhasiz, Shabustariy qalamiga mansub. "Gulshani roz" Shabustariyning eng yaxshi tasavvufiy she'riy asari bo'lgani kabi "Haq ul-yaqin" kitobi ham uning eng yaxshi nasriy asari sifatida e'tirof etilgan. Nasr tili nisbatan murakkab bo'lib, undagi nozik fikrlar so'fiylik, falsafiy va ilohiyot atamalari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, uning to'g'riliqini ko'plab Qur'on oyatlari va hadislar ko'rsatib turibdi [3:39]. Asar kirish hamda 8 bobdan iborat. Aynan sakkiz bobligi jannat eshiklarini ifodalovchi semantik bog'liqlikka ega. Muallif har bir bobda haqiqatning tafsiloti, ilm nozikliklari va kamolot

bosqichlari haqida so‘z yuritgan. Ushbu risola haqida L.Lyuson shunday yozadi: “Haq ul-yaqin”ni Ahmad G‘azzoliyning “Savonih ul-ushshoq” asari bilan qiyoslash mumkin. G‘azzoliyning ilohiy ishqning mohiyati haqida yozilgan ushbu risolasi tasavvufiy asoslar va nazariy tasavvufning durdona asari deb bilsak, Shabustariyning “Haq ul-yaqin”ini amaliy tasavvufning eng ishonchli manbasi deya olamiz” [3:40-41]. Bundan xulosa qilish mumkinki, bu asar musulmon tasavvuf ruknlarining amaliy malakalarini egallashda muhim o‘rin tutadi.

Shabustariyning qalamiga mansub yana bir asar “Mir’ot al-muhakkikin” nomli kichik risolada ham islam tasavvufining eng muhim masalalari sodda tilda bayon etilgan. Haq va dinni anglash, uning buyukligi, qudrati, unga yaqinlashish mohiyati ochiqlangan. Bu dunyoning mohiyatini, inson qalbini ohib beruvchi misralar borligi uchun ham asarni “Mir’ot al-muhakkikin” deya nomlangan [4:92]. Xulosa qilib aytganda, Shayx Mahmud Shabustariy mumtoz tasavvuf olamining forsiy an’anasi doirasida tasavvuf va irfon bobida insoniyatning ruhiy va ma’naviy kamoloti uchun durdona asarlar yaratib qoldirgan. Asrlar oshsa ham bu asarlar o‘z qiymatini yo‘qotmay, avlodlarning eng sevimli mutolaa manbai bo‘lib kelmoqda.

1. Лукашев А.А. Творческое наследие Махмуда Шабистари. Философия единобожия. Ислам в современном мире. 2017;13(4):203-218.
2. Лукашев, А.А. Философские взгляды Махмуда Шабистари (XIV в.)/ А.А.Лукашев. Автореф. дис. на соиск. уч. степ. кандид. философ. наук. – М., 2009. - 27 с.
3. Мохаммадибагмоляи Мохаммадказем Карим. Махмуд Шабистари и место его поэмы «Гулшан-и роз» в истории персидско-таджикской литературы. Дис. на соиск. уч. степ. кандид. философ. наук. – Душанбе, 2018. – 181 с.
4. Rıza Tevfik, Gülsen-i raz hakkında tetebbu'at-1 felsefiyye. Ankara, 2019, 255 s.